

IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA FISKAL SIYOSATNING O'RNI

Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda fiskal siyosat

Toshkent shahri Shayxontohur tumani

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirishda hamda xavfsizligini ta'minlashda asosiy e'tibor davlat farovonligini oshirish va uzoq muddatli makroiqtisodiy barqarorlikni saqlashga qaratilishi kerakligi, fiskal va pul-kredit siyosatini samarali yo'lga qo'yish rivojlanish uchun muhim qadam ekanligi yoritib berilgan. Ushbu maqola soliq-byudjet va pul-kredit siyosatini shakllantirishning nazariy va uslubiy asoslarini takomillashtirish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash maqsadida ularni muvofiqlashtirishni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy xavfsizlik, iqtisodiy siyosat, fiskal siyosat, pul-kredit siyosati, byudjet, soliqlar, iqtisodiy rivojlanish

Mustaqillikning eng muhim sharti real sharoitlarga muvofiq keladigan darajadagi milliy xavfsizlikni ta'minlashdir. O'zbekiston keng miqyosli islohotlar amalga oshirilayotgan yillar ichida barcha sohalarda, jumladan, milliy xavfsizlikni ta'minlash ishida ham katta va ijobiy amaliy tajriba to'pladi. Xalqlar birligi, ijtimoiy va milliy totuvlik, iqtisodiy o'sish va xalq farovonligining oshib borishi jahon tan olgan «O'zbek modeli» ning muvaffaqiyatlaridir. Taraqqiyotning «O'zbek modeli» haqida bundan 30 yil oldin, dastlab 1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asarida so'z yuritildi. Yurtboshimizning boqiy asarida o'zbek modelining mohiyati hamda tamoyillari berildi. Iqtisodiy rivojlanish modeli (fran. modeli o'lchov, andoza, namuna) iqtisodiyotni tashkil etish va rivojlantirish strategiyasi, maqsadlari, umumiy maqsadlari, umumiy tamoyillari ifodalangan nazariy qarashlar majmuidir. O'zbekiston siyosatining bosh yo'nalishi bevosita xavfsizlikka qaratilgan bo'lib, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining iqtisodiy va ijtimoiy asoslarini mustahkamlashdan iboratdir. Xavf-xatarlar orasida iqtisodiy sabablar birlamchidir. Chunki bozor iqtisodiyoti rivojlangani sari unga dastlab xos bo'lgan tarqoqlik, stixiyalik, alohidalashuv, o'z manfaatini ustun qo'yish kabilar cheklanadi. Xavf-xatarni ijtimoiy beqarorlik ham hosil qiladi.

Ijtimoiy munosabatlardagi keskinlik, ishsizlik va qonunga itoat etmaslik kabi hodisalar iqtisodiyotni izdan chiqarishi mumkin. O'zbekistonning yaqin muddat va uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyasi avvalo milliy iqtisodiyot ko'lamini

kengaytirish va sur'atlarini oshirish maqsadini ko'zlaydi. Ushbu strategiya iqtisodiy xavfsizlikning birlamchi asosi bo'lgan ishlab chiqarishning tarkibiy yangilanish yo'llarini belgilab beradi. Bularning barchasi makroiqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda yetakchi kuch hisoblanadi.

Ma'lumki, milliy, jumladan, iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlik masalalari dunyoning deyarli barcha mamlakatlari uchun birinchi darajali ahamiyatga ega. Mamlakatimiz iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda ishlab chiqarishning texnologik darajasini innovatsiya asosida oshirib borish, mehnat unumdorligini iqtisodiy o'sishning asosiy omiliga aylantirishga eng muhim vazifa sifatida belgilandi. Ijtimoiy xavfsizlik davlatning o'z fuqarolari oldidagi majburiyatlarini ijro etish qobiliyati hamdir.

«Ijtimoiy xavfsizlik» jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratadigan ijtimoiy institutlarning barqaror faoliyat ko'rsatishidir. Hozirgi jahon iqtisodiyot ilmidagi va mamlakatlar iqtisodiy siyosatida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash muammolariga jiddiy e'tibor berilishi ushbu mavzuning dolzarbligidan darak beradi. Hozirgi dunyoda tartib- qoidalar o'zgarib borayotgan sharoitda geosiyosiy ta'sir doiralari «qayta taqsimlash» ga urinishlar kuzatilmoqda, bu esa xalqaro huquq universal prinsiplarining buzilishiga va jahonda strategik mavhumlikning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Globallashuvning muqarrarlik xususiyati, uning bir tomondan, davlatlarning barqaror rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar ochib berishi, boshqa tomondan esa, iqtisodiy, oziq-ovqat, energetika, ekologiya, axborot, gumanitar xavfsizlik sohalarida to'g'ridan- to'g'ri va potensial xavf tug'dirmoqda. Bu jarayonlar dunyo mamlakatlarining bir-biriga bog'liqligining ortib borishi, global iqtisodiyotda inqirozli vaziyatlarning yuzaga kelishi, xalqaro moliya tizimining qayta shakllanishi, iqtisodiy taraqqiyot markazi Osiyo Tinch okeani mintaqasi tomon siljishi, turli xil yo'nalishdagi integratsion va dezintegratsion jarayonlarning chuqurlashuvi, strategik resurslar uchun kurashning kuchayishi, shuningdek, dunyoning turli mintaqalari rivojidagi nomutanosiblikning oshishi bilan izohlanadi. Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston o'zining muhim geosiyosiy joylashuvi va mineral xomashyo resurslarining ulkan zaxiralariga egaligi bilan doimiy e'tibor obyektiga hamda jahondagi yirik davlatlarning strategik manfaatlari to'qnashadigan hududga aylanmoqda.

Iqtisodiy xavfsizlikning ilmiy muammolar qatoridan asosiy o'rin olishi unga ta'sir etuvchi omillarning kuchayishidan kelib chiqadi. Bular jumlasiga, birinchi navbatda, globallashuv jarayonlarining kengayishi va chuqurlashib borishi kiradi. Umumbashariy globallashuv hamda ochiq iqtisodiyot milliy iqtisodiyotni jahon iqtisodiyotiga qattiq bog'lab qo'ydi, unga jahon xo'jaligidagi o'zgarishlar ta'sirini kuchaytirmoqda. Bu iqtisodiy kuchli bo'lmagan mamlakatlarda chetga qaramlik tahlikasini yuzaga keltiradi. Iqtisodiy kuchli va zaif mamlakatlar o'rtasidagi

tafovutlarning saqlanishi va ayrim hollarda kuchayishiga olib keladiki, natijada globallashuv qarshi harakatlarni yuzaga chiqara boshlaydi. Globallashuv terrorizm, diniy ekstremizm va odam savdosiga xalqaro tus berganligi uchun ham iqtisodiy tahlikani yuzaga keltiradi.

Iqtisodiy xavfsizlik - mamlakat, hudud, firma, kompaniyaning iqtisodiy inqirozga uchrash xavfidan himoya qilish bo'yicha ko'radigan chora-tadbirlari majmui. Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadlarida yirik firma, kompaniyalarda maxsus xizmatlar tashkil qilinadi. Ular bozorlarni o'rganish, talab va taklifni prognozlash, ilmiy-texnika taraqqiyotini kuzatish va boshqa ishlarni bajaradilar. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda mahsulot turini muntazam yangilab turish, harajatlarni qisqartirish muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy xavfsizlik - bu iqtisodiyotning shunday holatidirki, bunda uning barqaror o'sishi, ijtimoiy ehtiyojlarining maqbul darajada qanoatlantirilishi, boshqaruvning yuksak sifati, iqtisodiy manfaatlarni milliy va xalqaro darajada

Турли мамлакатларда солиқ тушумларининг ЯИМ га нисбатан ўртача юки (фоизда)

Мамлакат	Солиқлар, йиғимлар ва мажбурий тўловлар юки	Мажбурий тўловларсиз солиқлар юки
Австрия	45,5	29,9
Буюк Британия	33,9	27,7
Германия	42,9	23,1
Дания	52,8	49,7
Испания	35,5	21,7
Италия	42,9	27,4
Канада	36,3	31,0
Нидерландия	44,8	26,6
АҚШ	31,8	22,7
Франция	46,3	24,9
Швеция	54,2	38,1
Япония	28,6	18,2
Хитой	20,0	15,0
Россия	30,7	22,1
Ўзбекистон*	26,7	20

himoyalash ta'minlanadi.^[1]

Iqtisodiy xavfsizlik milliy iqtisodiyot darajasida makroiqtisodiy kategoriya va muayyan mamlakat milliy iqtisodiyotini tavsiflaydi, bozor tizimida xatar borligidan va bundan hatto milliy iqtisodiyot ham xoli bo'lmasligini, undan saqlanish zarurligini bildiradi.

Iqtisodiy xavfsizlikning bosh mezoni bu mamlakat ehtiyojlarining uzluksiz ta'minlanishi hisoblanadi, bu, birinchidan, imkon boricha o'z-o'zini mahsulot va xizmatlar bilan ta'minlashni, ikkinchidan, mamlakatda yaratish mumkin bo'lmagan tovar va xizmatlarni chetdan qulay narxlarda va uzluksiz keltirib turishni bildiradi. Aks holda iqtisodiyotni izdan chiqaradi.

Milliy iqtisodiyot darajasida iqtisodiy xavfsizlikning muhim 3 yo'nalishi (oziq-ovqat, yoqilg'i-energetika, eksport) mavjud. Mamlakat aholisining

ozuq-ovqatga bo'lgan talabini qondirilishi 80%, mamlakatning energiya omillariga bo'lgan talabining o'z hisobidan 70—80% ga qondirilganda xavfsizlikka erishilgan hisoblanadi. Eksport xavfsizligi mamlakat eksport salohiyatini amalga oshirish imkoniyati bilan belgilanadi. Eksport tarkibida iste'molga tayyor mahsulotlar, birinchi navbatda, ishlov beruvchi sa-noat mahsulotlari bo'lishi talab etiladi. Eksportning cheklangan turdagi tovarlarga, ayniqsa, jahon bozorida narxi tez-tez o'zgarib turadigan xom ashyo va energiya omillariga bog'liq bo'lib qolishi eksport xatarini tug'diradi, narxlar pasaygan paytda eksport tushumidagi yo'qotishlar mamlakat iqtisodiyotiga zarar keltiradi.

Iqtisodiyot globallashtan, eksport va importning milliy iqtisodiyotga ta'siri kuchaygan sharoitda iqtisodiy xavfsizlikni o'z ishlab chiqarishi bilan ta'minlab bo'lmaydi. Shunday sharoitda eksport-import aloqalarining muntazamligini strategik sherikchilik asosida ta'minlash iqtisodiy xavfsizlikni kafolatlaydi.

Mutaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston iqtisodiyotidagi tarkibiy siljishlar tufayli don mustaqilligiga erishildi, mamlakat ehtiyojining 90% o'z doni bilan ta'minlandi (2002-yil). Yoqilg'i-energetika kompleksini rivojlantirish natijasida shu sohadagi talab-ehtiyojlarni ham, asosan, o'z ishlab chiqarishi hisobidan qondirishga erishildi.

XX asr oxirlariga kelib, "xavfsizlik" va "milliy xavfsizlik" tushunchalari tez-tez qo'llanila boshlandi. Bu insoniyat rivojlanishining murakkablashuvi, yadro, atom va boshqa ommaviy qirg'in qurollarining keng tarqalishi, yangi xavfli kasalliklarning vujudga kelishi, terrorizm xavfining kuchayishi, totalitar tuzum yemirilgandan keyin dunyoning qaramaqarshi qutblarga bo'linishi barham topgandan keyingi davlatlar o'rtasidagi muvozanatning buzilishi, yangi mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi, ularda bozor islohotlarining amalga oshirilishi bilan izohlanadi.

Dunyodagi bunday o'zgarishlar xavfsizlik, umumiy va milliy xavfsizlik muammolariga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirdi.¹ Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mazmun va mohiyatini yoritib berishdan oldin milliy xavfsizlik tushunchasiga to'xtalib o'tish kerak bo'ladi.

Milliy xavfsizlik manfaatlarni himoyalashning umumiy shakli sifatida manfaat va ehtiyojlarni qondirish, moddiy, ma'naviy, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lish va farovonlikka intilish to'g'risidagi barcha tasavvurlarni ifodalaydi. Mamlakatning milliy xavfsizligi uning milliy manfaatlarini turli siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ekologik, g'oyaviy va boshqa omillar ta'siri va tahdidlardan himoya qilishga yo'naltiriladi. Shuning uchun ham milliy xavfsizlik tarkibi murakkab tuzilishga ega bo'lib, siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ekologik, g'oyaviy, mafkuraviy, axborot xavfsizligini o'z ichiga oladi.² L.Abalkinning ta'kidlashicha, mamlakatning o'z-o'zidan rivojlanish

¹ «Davlatning iqtisodiy xavfsizligi». H.P.Abulqosimov. Toshkent - 2012

² «Davlatning iqtisodiy xavfsizligi». H.P.Abulqosimov. Toshkent - 2012

va taraqqiy etishga qodirligi ayniqsa hozirgi paytda o'ta muhimdir. Investitsiya va innovatsiyalar uchun kerakli muhitni yaratish, ishlab chiqarishni muntazam modernizatsiya qilish, xodimlarning bilim, kasb- malaka, umumiy madaniy darajasini oshirish kabilar milliy iqtisodiyotning barqarorligining zarur va muhim shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi³.

Iqtisodiy xavfsizlik va yagona davlat siyosatiga, shaxs, jamiyat va davlat xayotiy manfaatlariga mos iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy va boshqa choralar tizimi orqali erishiladi. Iqtisodiyot sohasida mamlakatning milliy manfaatlarini himoya qilish davlat tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy vazifalari quyidagilardir: – iqtisodiyotning xalqaro integratsiyasi uchun qulay shartsharoitlar yaratish; – tovar va xizmatlarni sotish (o'tkazish) bozorini kengaytirish; – MDHga a'zo mamlakatlarning umumiy iqtisodiy makonini yaratish. Jahon tovar va xizmatlar bozoridagi raqobat kuchaygan sharoitda O'zbekiston tadbirkorlarining manfaatlarini himoyasini kuchaytirish zarur.

Mamlakatning tashqi qarzlarga bog'liqligini kamaytirishda muvozanatlashgan kredit-moliya siyosatini amalga oshirish alohida o'rin tutadi. Strategik tabiiy resurslar konlarini, shuningdek, telekommunikatsiyalar, transport va tovar o'tkazuvchi tarmoqlarni xorijiy kompaniyalarga foydalanish uchun berishda cheklovlar belgilash zarur. Iqtisodiy xavfsizlikni asosiy obyektlari-shaxs va uning xuquq erkinliklari, uning moddiy va ma'naviy qadriyatlarini, davlat va uning konstitutsiyaviyligi turar-joy tizimi, suverenitet va xududiy yaxlitlik. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash ichki iqtisodiy siyosatda quyidagi yo'nalishlardan foydalanishni taqozo etadi: – iqtisodiyotning davlat tomonidan boshqarilishini kuchaytirish; islohotlarni huquqiy jihatdan ta'minlash hamda mamlakat qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilishning samarali mexanizmini yaratish; – ilmiy-texnikaviy, texnologik va ishlab chiqarish salohiyatini saqlabqolish hamda rivojlantirish choralarini ko'rish; – fan yutuqlaridan foydalanishga asoslangan tarmoqlar va ishlab chiqarishni ilgari rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiyot tarkibidagi buzilishlarini eliminatsiya qilish; – investitsiya va innovatsiya sohasidagi faollikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni oshirib borish; – raqobatbardosh tarmoqlar va ishlab chiqarish sohasini, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, ustuvor yo'nalish sifatida rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratish; – moddiy va moliyaviy resurslarni fan va texnikaning ustuvor yo'nalishlariga jamlash; – mamlakatdagi yetakchi ilmiy maktablarni qo'llab-quvvatlash.

Iqtisodiy xavfsizlik deganda, iqtisodiyotning shunday ahvolini tushunish kerakki, bunda unga tanazzulga yuz tutish samaradorlik darajasining pasayishi kabi xavflar taxdid qilmaydi, u inqirozga yo'liqqan taqdirda ham tezda qayta tiklanish qobiliyatiga ega bo'ladi. Uning bu qobiliyati takror ishlab chiqarishni bir maromda

³ Абалкин Л. Экономическая безопасность России: угрозы и их отражение.// Вопросы экономики. 1994, №12, с. 45

borishini bildiradi, Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy xavfsizlik kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni taqozo etadi. Iqtisodiy xavfsizlik strategiyasini ishlab chiqish, unga siyosiy va xo'jalik qarorlarini qabul qilish jarayonida normativlik xususiyatini berish, ijtimoiy jarayonlarni boshqarish mexanizmiga tahdidlarning paydo bo'lganidan xabar beruvchi indikatorlarni kiritish, ularni bartaraf etish bo'yicha samarali choralar — bularning hammasi davlat siyosatining yo'nalishlarini tashkil etadi.⁴

Yaxshi muvofiqlashtirilgan fiskal va pul-kredit tartibga solishchora-tadbirlari institutlarning past sifati bilan birgalikda davlat moliya siyosati samaradorligini pasaytiradi. Tegishli sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qilib, ularni uyg'un va murakkab qo'llash juda muhimdir.

Fiskal va pul-kredit institutlari o'zlarining funktsional vakolatlarini amalga oshirishda bir-biridan keskin farq qiladi. Fiskal va monetar institutsional vositalar o'ziga xos xususiyatga ega va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati va yalpi talabga ta'sir qiladi. Moliyaviy siyosat chora-tadbirlarini tayyorlashda institutsional mustaqillik turli iqtisodiy nazariyalarga asoslangan holda uning asoslilikini oshiradi.

Hokimiyat o'rtasida vakolatlarning qayta taqsimlanishi moliyaviy vositalar va vositalarning iqtisodiyotga ta'siriga nisbatan sezilarli darajada farq qiluvchi institutsional yondashuvlarni taqdim etish va makroiqtisodiy barqarorlik uchun asosiy xavf va tahdidlarni aniqlash imkonini beradi. Moliyaviy maqsadlar narxlar barqarorligiga jiddiy putur etkazmasligi kerak, shu bilan birga mukammal pul-kredit regulyatorining nazorati tanazzulga olib kelmasligi kerak. Iqtisodiy siyosatning noaniqligini va asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgaruvchanligini kamaytirish uchun o'rta muddatli istiqbolda ham fiskal, ham pul-kredit organlarini muvofiqlashtirish kerak.

Tegishli iqtisodiy qarorlarining davomiyligi, tabiati va kechikish effektlariga katta e'tibor qaratish lozim. Maxsus institutsional va operasion tuzilmalar fiskal va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishga yordam berishi mumkin.

Asosiy qism: Hukumat fiskal va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirish samaradorligini baholashni doimiy ravishda takomillashtirdi. Inflyatsiya siyosatning o'zaro ta'sirining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi; narx barqarorligi tartibga solish samaradorligini o'lchash mezoni hisoblanadi. Inflyatsiya dinamikasining qisman fiskal xususiyatiga kelsak, narxlar barqarorligi uchun to'liq javobgarlikni markaziy bankning harakatlari bilan bog'lab bo'lmaydi. Davlat organlarining iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va fiskal vositalar orqali yalpi talabni rag'batlantirish niyatlari davlat pul-kredit siyosatida o'z ifodasini topadi. Rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida byudjet siyosati inflyatsiyaga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

⁴ Косолапов Н.А. Сила, Безопасность: Современная диалектика взаимосвязей// Мировая экономика и международные отношения. 1992. № 11.С.48.

Byudjet xarajatlarini tartibga solish inflyatsiyani kuchaytiradi, bu fakt ortib borayotgan yalpi talab bilan mos keladi. Boshqa tomondan, soliq siyosatining iste'mol narxlarini indeksiga ta'siri ko'rsatadi. Jumladan, iste'molga soliq yukining oshishi inflyatsiyani tezlashtiradi hamda daromad solig'i oshsa, narxlar oshishi mumkin. Demak, ham fiskal, ham pul-kredit choralari milliy iqtisodiy modelni hisobga olgan holda inflyatsiyaning o'zgaruvchanligini optimal qiymatlarga kamaytirishi kerak. Tovar iqtisodiyoti rivojlangan va texnologik jihatdan diversifikatsiyalangan mamlakatlarga qaraganda bir oz yuqori inflyatsiyaga ega.

2003 yildan 2018 yilgacha Braziliyada o'rtacha iste'mol indeksi mos ravishda 6,32%, Qozog'istonda -8,23%, Hindistonda -6,78%, Rossiya Federatsiyasida -9,16% va Evropa Ittifoqida -1,84% edi. Davlat moliya siyosati tarkibiy qismlarining o'zaro ta'siri ko'p jihatdan institutsional muhit sifatiga bog'liq. Tovar iqtisodiyoti an'anaviy ravishda yetarli darajada institutsional rivojlanish va populizmga ega emas (davlat moliya siyosati qo'llaniladi). Urushdan keyingi davrda jahondagi eng yuqori inflyatsiya darajasi bilan tavsiflangan Venesuela tajribasi yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy intizomni yaxshilash uchun pul-kredit qoidalarini takomillashtirish va tegishli siyosatni modernizatsiya qilish avtomatik ravishda ma'lum byudjet cheklovlari bilan bog'lanadi.

Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun moliyaviy tartibga solish chora-tadbirlarining ta'sir etuvchi omillari ham, ularning jamoatchilikka taqdim etilishi ham muhim ahamiyatga ega. Pul-kredit va fiskal siyosatning chora-tadbirlari bir vaqtning o'zida xalq farovonligini oshirish va uzoq muddatli makroiqtisodiy barqarorlikni saqlashga qaratilgan. Muhim ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgaruvchanligi, ularning ekzogen zarbalarga hal qiluvchi zaifligi va rivojlanishning yuqori darajadagi noaniqligi ishlab chiqarish o'sishini yomonlashtiradi.

Moliyaviy va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirish tegishli maqsadlarning dialektik birligiga yo'naltirilishi kerak. Iqtisodiy barqarorlikka kelsak, past va barqaror inflyatsiya ko'rinishidagi narxlar barqarorligiga amalda faqat davlat moliyaviy chora-tadbirlarining muvofiqlashtirilgan o'zaro ta'siri orqali erishish mumkin. Soliq bazasini kengaytirish va davlat xarajatlarini optimallashtirish bilan bog'liq sohadagi tarkibiy o'zgarishlar natijasida iste'mol indeksi darajasining bosqichma-bosqich qisqarishi va o'zgaruvchanlik iqtisodiy siyosat to'g'ri tashkil etilayotganidan dalolat beradi. Iqtisodiy o'sish umumiy resurslar samaradorligini oshirishga qaratilgan fiskal tizimning institutsional arxitektonikasini moslashtirish imkonini beradi. Iste'molchi maqsadlarini e'lon qilish va investitsiya talabini rag'batlantirishni hisobga olgan holda xarajatlar tarkibini optimallashtirishda byudjet mablag'larining samaradorligi va ulardan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega. Rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida davlat xarajatlarining keskin o'sishi ularning ishlab

chiqarish tarkibiy qismining o'sishiga ta'sir qilmaydi, chunki byudjet siyosatining iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish qobiliyati past.

Uzoq muddatli byudjetni rejalashtirishga kelsak, asosiy byudjet ko'rsatkichlarining nisbatan o'rtacha o'sish sur'ati fiskal mexanizmning narxlar oshishiga ta'sirini kamaytiradi. Iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda Davlat xarajatlari muhim ahamiyatga ega. Davlat xarajatlari qisqa muddatli va uzoq muddatli (o'rta muddatli) tarkibiy qismlarga bo'linadi. Uzoq muddatli komponentga katta iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy, mudofaa dasturlari va boshqalar bilan bog'liq byudjet xarajatlari kiradi. Ularni qisqa muddatda to'liq amalga oshirish mumkin emas. Uzoq muddatli davlat xarajatlari odatda prognoz qilinadigan va rejalashtirish davrida nisbatan barqarordir.

Davlat xarajatlarining qisqa muddatli tarkibiy qismi, birinchi navbatda, yalpi talabni rag'batlantirishga qaratilgan iqtisodiy o'sish dinamikasining davriy o'zgarishlariga markaziy ijro etuvchi hokimiyat organlarining maqsadli munosabatini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Davlat moliyaviy strategiyasi ijtimoiy rivojlanishning tegishli bosqichida makroiqtisodiy tendensiyalar va maqsadlardan kelib chiqqan holda tartibga solish chora-tadbirlarini tayyorlash va amalga oshirishning o'zgaruvchan iqtisodiy siyosatini nazarda tutadi. Makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash va uning endogen rivojlanish omillarini kuchaytirish uchun fiskal va pul-kredit vositalarini oqilona muvofiqlashtirilgan holda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy moliyaviy strategiyaning ustuvor yo'nalishlari barqaror iqtisodiy o'sish uchun qulay fiskal, pul va investitsiya sharoitlarini oqilona institutsional cheklovlar bilan birlashtiradi. Markaziy bank va fiskal organlarning faoliyatini institutsional yondashuv asosida muvofiqlashtirish, ularning o'zaro hamkorligining shaffofligi va samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Vakolatlarning sadoqatligi moliyaviy vositalarning uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy rivojlanishga ta'siriga bir nechta yondashuvlarni taqdim etishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Afonso A., Furceri D. (2010). Government size, composition, volatility and economic growth. *European Journal of Political Economy*, 26(4), 517–532.
2. A Ahrorjon. (2022). Reasons, problems and consequences for the accession of the Uzbek ecanomy to the WTO. International scientific conference "Topical issues of the economy in modern.
3. Lahutin V. (2017). Economic policy of the state and effects of its realization. *Herald of Kyiv national university of trade and economics*.
4. 5–20.4.M Mamadjonov, A Abdullayev, I Abdurahmonov, A Mamadaliyev. (2021). ChallenGES of management in the digital economy. *Scientific progress*, 2 (6), 1533-1537. .Toxirov.

5. Kokand, F. M., Kokand, R. T., & Kokand, D. M. (2020). Trends in solving problems in the development of an innovative economy. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(6), 1205-1209.
6. Toxirov, R. S., & Raxmonov, N. R. O. G. L. (2021). DASTURIY TA'MINOT YoRDAMIDA ZAMONAVIY BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 1(1), 181-186.
7. Tokhirov, R., & Rahmonov, N. (2021). Technologies of using local networks efficiently. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(6), 250-254.
8. Tokhirov, R., & Abdurakhimjanov, A. (2021). The Issue of Modern Strategic Management in Enterprises or Firms. *The American Journal of Management and Economics Innovations*, 3(08), 9-14.